



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 240 sahifa,
16-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari	10
Fazliddin Abdunabiyevich Abdurazaqov	
Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari	15
Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li	
Orfografik kompetensiyaning mohiyati va boshlang'ich sinflarda shakllanish bosqichlari	21
Abduvaliyeva Nodira Alisherovna, Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi	
Tabiiy fanlarni o'qitishda uch o'lchamli vizualizatsiyalarning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati	25
Nabijonova Feruza Valijon qizi	
Loyiha texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish mazmuni	28
O'rinova Nilufar Muxammadovna	
Sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasi	32
Qilichova Billura Yorqinxuja qizi, Homidov H. K.	
Kasbiy-kommunikativ madaniyat fenomenining pedagogik talqini va rivojlanish tendensiyalari	37
Tashpulatova Nodira Olimjon qizi	
Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv	41
Umbarova Nasiba Xolboy qizi	
Xorijiy tillarni o'rganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati	44
Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboev Navruz Ilhombek o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi (PIRLS dasturi misolida)	47
Abduraxmanova Charos Burxanovna	
Lesson Planning in English Language Teaching at Technical Universities	51
Aitbaeva Nursuliu Tairbekovna	
Lingvistik intellekt asosida individual o'qitish yondashuvining samaradorligi	55
Allanazarova Sadoqat Azimovna	
Xorij tadqiqotlarida zamonaviy oila transformatsiyasida farzandlar taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik asoslari	59
Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna	
Теоретико-методологические подходы к изучению эмоциональных концептов в литературе: (на материале английских и немецких фразеологизмов)	63
Сайёра Улашевна Тагаева, Азиза Анкаевна Уразкулова	
The Importance of Forming a Schedule for High School Students	67
D. T. Atabayeva, X. I. Abduraymova	
Milliy cholg'u ansambllari orqali o'quvchilar musiqiy dunyoqarashini shakllantirish	70
Dadamirzayeva Gulshanoy To'lanjon qizi	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga yondashuvning texnologik xususiyatlari ...	75
Jumanov Sherzod Saloyevich	
Adabiyot darsliklari uchun yangi o'zbek adabiyoti namunalarini saralashning ilmiy-metodik asoslari	78
Musaboyeva Zulfira Iqboljon qizi	
Maktab geometriyasida ko'pyoqlilar mavzusini o'rganishning innovatsion usullari	83
Pirlepesov Umrbek Baxtiyor o'g'li	
Generativ AI vositalarining mustaqil ta'lim jarayonidagi didaktik funksiyalari	86
Qahramonova Xumora Qahramonovna	
O'quvchi-sportchilar uchun individual mashg'ulot yuklamalarini avtomatik rejalashtirish va optimallashtirish imkoniyatini yaratish ahamiyati	91
Qosimov Faxriddin Jo'raqulovich	



Когнитивный диссонанс как социально-психологический феномен в контексте высшего образования: теоретический анализ	95
Мансурова Гульмира Рафазловна	
Регуляторный произвол или необходимый порядок? Влияние новых регуляторных механизмов на свободу расследовательской журналистики	101
Рауфова Озода	
Qizlar tarbiyasida mahalla–oila–maktab hamkorligi mexanizmlari	105
Choriyeva Dildora Ismat qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirishning samaradorligi: kompetensiyaviy yondashuv asosida	109
Tangriyev Abdulkarim Tovashevich	
O'qish savodxonligi darslarida matn bilan ishlash orqali o'quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi.....	114
Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi	
Raqamli transformatsiya sharoitida STEAM ta'limi orqali talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish	120
Kozimova Mehriniso Akbarali qizi	
Oliy ta'limda kvest texnologiyasi yordamida fizika fanining murakkab tushunchalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish metodikasi.....	125
O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish texnologiyalari va ularning amaliy qo'llanilishi	129
Sharipov Nodir Botir o'g'li	
Management of Medical Emergencies in Outpatient Dental Clinics.....	133
Adurazzoqov Kamoliddin, Umarov Maruf, Buzrukhoda Javohir	
Psixologik farovonlikning asosiy komponentlari, ta'sir qiluvchi omillar va zamonaviy baholash usullari	138
Aliyev Samariddin Murotali o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	142
Boymurodova Sadoqat Istam qizi	
O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi.....	146
Gadoymurodova Kamola Sunnatullojeva	
Oilada bola tarbiyasining ahamiyati va uning shaxs kamolotiga ta'siri	151
Galdiyeva Mehribon Durdiyevna, Oilimova Mushtariy Xaydarali qizi	
Art-pedagogika vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik ahamiyati	154
Gulboyev Akbar Tuxtyayevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy tadbirlar orqali vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish	158
Homidov Husniddin Kupaysinovich, Yusupova Gulzor Yunusjon qizi, Norbekova Sevinch Musurmon qizi	
Bone-Grafting Materials in Oral Surgery: Classification, Biological Properties, and Clinical Application	161
Jumaqulova Mashhura Alishevovna, Buzrukhoda Javohir Davronovich	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompetensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik	166
Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi	
Using STEM Technologies to Foster Rational Thinking in the Dentistry	169
Khonimqulov Javlon, Burkhonova Zarafuz	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini montessori metodikasi vositasida til o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish usullari modeli.....	173
Mahbuba Yusupova Rustam qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyalarni integrativ yondashuv asosida shakllantirish metodikasining samaradorligi.....	177
Nasimova N. Q.	
Analysis of Scanning Techniques Used in Orthodontic Dentistry	182
Nasrullayev Javlonbek Ta'atonovich, Rahimberdiyev Rustam Abdunosirovich	
Zamonaviylik - ta'lim konsepsiyasida asosiy mezon sifatida	187
Ochilova Gulnoza Odilovna	

O'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish metodikasi	191
<i>Qahhorova Sojida Bahodir qizi, Zokirov Javoxir G'aybullo o'g'li</i>	
Diqqat va xotira jarayonlarida raqamli texnologiyalarning roli	196
<i>Salomova Nargiza Sattorovna</i>	
Talabalarda kasbiy refleksiya rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarning empirik tahlili.....	200
<i>Shukurova Nargiza Ikramovna</i>	
Gimnastikachi qizlarda egiluvchanlik jismoniy sifatini rivojlantirish jarayonida shikastlanishlarning oldini olish	205
<i>Sultanova Musharafxon Xudoyqul qizi</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ekologik bilimlarni raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish...	210
<i>Sayfetdinova Dildora Ikramitdinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari	216
<i>Uralova Nurxon Maxadovna</i>	
Naqshbandiya qadriyatlarini bo'lg'usi o'qituvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rni.....	220
<i>Xalmuxamedova Maxbuba Aslanovna</i>	
Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari	223
<i>Xo'jamberdiyeva Maftuna Norqobilovna, Sanaqulova Sevinch Baxtiyor qizi</i>	
Developing Logical Thinking via the Use of STEM Technology	226
<i>Yarmuhammedov Nabijon Navruzovich, Burkhonova Zarafuz</i>	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati	229
<i>Yo'ldoshboyeva Zulfiya Ravshan qizi, Jumayev Abdilxakim Turdiyevich</i>	
Значение предмета физического воспитания и спортивной метрологии в физическом воспитании молодежи	233
<i>Маматкулов Равшанжон Солижонович</i>	
Аксиологические аспекты диалога культур в романе Сухбата Афлатуни "Рай Земной"	237
<i>Чернова Татьяна Алексеевна, Худойназаров Сардорбек</i>	

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI

Boymurodova Sadoqat Istam qizi

BuxDPI Boshlang'ich ta'lim kafedrasida tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik hamda psixologik asoslari tahlil qilingan. Zamonaviy ta'lim talablari nuqtayi nazaridan "kompetensiya" va "nutqiy kompetensiya" tushunchalarining mazmun-mohiyati yoritilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy faoliyatini rivojlantirishning samarali usul va vositalari ilmiy asosda tavsiflangan. Shuningdek, kommunikativ yondashuv asosida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini takomillashtirish imkoniyatlari hamda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning metodik jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, nutqiy kompetensiya, boshlang'ich ta'lim, kommunikativ yondashuv, lisoniy shaxs, nutqiy faoliyat, integratsiya.

Abstract: This article examines the pedagogical and psychological foundations of forming and developing speech competence in primary school students. From the perspective of contemporary educational requirements, the essence of the concepts of "competence" and "speech competence" is clarified, and effective methods and strategies for enhancing pupils' speech activity are analyzed. Particular attention is given to the communicative approach, the development of oral and written communication skills, and the methodological aspects of fostering speech competence in primary education.

Key words: competence, speech competence, primary education, communicative approach, linguistic personality, speech activity, integration.

Аннотация: В данной статье рассматриваются педагогические и психологические основы формирования и развития речевой компетенции у учащихся начальных классов. С позиций современных образовательных требований раскрывается сущность понятий "компетенция" и "речевая компетенция", анализируются эффективные методы и средства развития речевой деятельности младших школьников. Особое внимание уделяется коммуникативному подходу, совершенствованию устной и письменной речи учащихся, а также методическим аспектам формирования речевой компетенции в начальном образовании.

Ключевые слова: компетенция, речевая компетенция, начальное образование, коммуникативный подход, языковая личность, речевая деятельность, интеграция.

KIRISH

Zamonaviy global taraqqiyot va o'zgarishlar davrida ta'lim tizimining bosh maqsadi faqatgina o'quvchilarga tayyor bilimlarni berish emas, balki ularda hayotiy vaziyatlarda erkin qo'llay olinadigan amaliy ko'nikma va malakalarni - kompetensiyalarni shakllantirishdan iboratdir. Ayniqsa, boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishi, dunyoqarashining kengayishi va ijtimoiy muhitga moslashuvida nutqiy kompetensiya markaziy o'rinni egallaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Milliy o'quv dasturi talablari asosida ona tili darslarini integratsiyalashgan holda o'qitish, o'quvchini faol muloqotga kirishuvchi, o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda ravon bayon eta oladigan shaxs darajasiga ko'tarishni taqozo etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri bo'lsa-da, uning ildizlari uzoq tarixga - Sharq va G'arb sivilizatsiyasining eng yorqin davrlariga borib taqaladi.



Sharq Uyg'onish davri (X–XII asrlar - Birinchi Renessans) allomalari bola tarbiyasi, ayniqsa, uning nutqi ravon, go'zal va mantiqiy bo'lishiga juda katta e'tibor qaratganlar. Ular tilni shunchaki muloqot vositasi emas, balki inson ma'naviyati, aql-idroki va madaniyatining bosh mezoni deb bilishgan.

“Sharq Arastusi” nomi bilan mashhur bo'lgan Forobiy nutq madaniyatini shaxs kamolotining asosi deb hisoblagan. Olim tilni fikrni bayon qiluvchi va uni bezovchi qurol deb bilgan. U bolaga so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish, lug'at boyligini oshirish va she'riyatga qiziqtirish orqali nutqni go'zallashtirish mumkinligini ta'kidlagan.

Ibn Sino “Tadbiri manzillar” (“Oilani boshqarish”) va “Tib qonunlari” asarlarida bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishi, jumladan, nutq o'stirish masalalariga to'xtalib o'tgan. Ibn Sino bolaning nutqi ravon bo'lishi uchun uni uyda yolg'iz qoldirmay, tengdoshlari davrasiga qo'shish kerakligini aytadi. Bolalar bir-biri bilan muloqot qilish jarayonida so'zlarni tezroq o'zlashtirishi va tortinchoqlikdan xalos bo'lishini ta'kidlaydi.

Mahmud Qoshg'ariy, “Devonu lug'otit turk” asari muallifi sifatida, til va nutq madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan. Qoshg'ariy bolaga yoshligidanoq ona tilini mukammal o'rgatish, so'zlarning ma'nosini aniq tushuntirish zarurligini qayd etgan. Asarda keltirilgan maqollar va hikmatlar orqali bolaning so'z boyligini oshirish, vaziyatga qarab to'g'ri so'zlay olish qobiliyatini shakllantirish, noto'g'ri va qo'pol so'zlardan qochishga o'rgatish targ'ib qilinadi.

Yusuf Xos Hojib o'zining mashhur “Qutadg'u bilig” (“Saodatga eltuvchi bilim”) dostonida til va nutq odobiga butun boshli boblarni bag'ishlagan. Muallif bolalar va yoshlarga murojaat qilib, tilni tiyish, faqat kerakli va ma'noli so'zlarni so'zlash nutqning eng oliy fazilati ekanligini ta'kidlaydi. Yusuf Xos Hojib bolani yoshligidan shoshmasdan, mulohazali va muloyimlik bilan gapirishga o'rgatish kerakligini uqtiradi. Baqirib gapirish yoki haddan tashqari ko'p gapirish nutqning qiymatini tushirishini qayd etadi.

Muxtasar qilib aytganda, Birinchi Renessans olimlari bola nutqining ravonligini uning aqlan yetukligi va odobliligining belgisi deb bilishgan hamda bunga oilaviy tarbiyaning eng muhim poydevori sifatida qarashgan.

Sharq Uyg'onish davrining Ikkinchi Renessansi (XIV–XVI asrlar) davrida ham nutq madaniyati va ona tili sofliqi masalalari davlat siyosati hamda ilm-fan markaziga aylandi.

Alisher Navoiy so'z qudrati va nutq madaniyatiga o'zining “Mahbub ul-qulub” va “Hayrat ul-abror” asarlarida alohida o'rin ajratgan. U bolalarga yoshligidan ona tilini (turkiy tilni) mukammal o'rgatish, uning boy imkoniyatlaridan unumli foydalanishni tavsiya etgan. Mutafakkir ona tilini yaxshi bilgan bolaning fikrlashi ham chuqur, nutqi ham ravon bo'lishini ta'kidlagan.

Husayn Voiz Koshifiy o'zining “Axloqi Muhsiniy” va “Futuvvatnomai sultoniy” asarlarida bolaning ijtimoiy hayotga tayyorlanishi, oiladagi va jamiyatdagi o'rni hamda so'zlashish san'atini batafsil yoritgan. Koshifiy bolaning nutqi mukammal bo'lishi uchun quyidagi oltin qoidalariga amal qilishni tavsiya etadi:

1. Eshitishni bilish - yaxshi tinglovchi bo'lmagan bola hech qachon yaxshi gapiruvchi bo'la olmaydi.
2. Vaqtini to'g'ri tanlash - qachon va qayerda gapirishni bilish.
3. Me'yorni bilish - keragidan ortiq ham, kam ham gapirmaslik.
4. Faqat rost so'zlash - ravon nutqning asosi uning samimiyligi va haqqoniyligidir.
5. Suhbatdoshga hurmat - bola gapirganda kattalarning gapini bo'lmasligi, o'z fikrini dadil, lekin odob doirasida bayon qilishi lozim.

Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat shoh va sarkarda, balki tilshunos va adib sifatida ham bola tarbiyasi va nutqiga jiddiy e'tibor qaratgan. Buni uning farzandi Humoyun Mirzoga yozgan xatlarida ham ko'rish mumkin. Bobur Humoyun Mirzoning xatlarini tahlil qilar ekan, unga shunday nasihat qiladi:

“Sening xatingni o'qisa bo'ladi, lekin tushunib bo'lmaydi. Juda dabdabali va chigal so'zlarni ishlatgansan. Bundan keyin oddiy, qisqa va tushunarli tilda yoz. Shunda o'quvchiga ham, senga ham oson bo'ladi”.

Olimlar ushbu o'g'itni bola nutqini rivojlantirishda ortiqcha dabdabadan qochish, fikrni lo'nda va tushunarli ifodalash qoidasi sifatida baholaydilar.

Ikkinchi Renessans vakillari bolaning nutqini shunchaki tovushlar tizimi emas, balki uning ichki dunyosi, tafakkuri va dunyoqarashining ko'zgusi deb hisoblashgan. Nutqni rivojlantirishning eng to'g'ri yo'li esa yoshlikdan ona tilini sevish, soddalik va so'zlashish odobini o'rganishdir.

G'arb ilm-fani va pedagogikasida ham bolaning nutqini rivojlantirish, uni tizimli ravishda shakllantirish masalasi qadimgi antik davrdan boshlab, uyg'onish va ma'rifatparvarlik davrlarigacha eng muhim mavzulardan biri bo'lib kelgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yuqorida ko'rinib turibdiki, Birinchi Renessans davrining buyuk mutafakkirlari bolaning nutqi mantiqiy fikrlash bilan uzviy bog'liqligini, nutqiy muhit esa uning shaxsiy kamolotini belgilashini ta'kidlagan bo'lsalar, Ikkinchi Renessans davrining ulkan siymolari til sofligi va uning amaliy imkoniyatlaridan oqilona foydalana olishni inson ma'naviyatining bosh mezoni deb bilganlar. Xuddi shuningdek, G'arb pedagogikasida ham olimlar bolaning yoshligidan nutq apparatini rivojlantirish, so'zlarni amaliy vaziyatlarda o'rinli va to'g'ri qo'llash metodi-kasini ilgari surganlar.

Tarixiy-pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, qadimgi va o'rta asrlar mutafakkirlari "nutq madaniyati", "nutq odobi" va "so'zlashish san'ati" deb atagan tushunchalar bugungi kunda ta'lim tizimidagi "kompetensiya" fenomenining dastlabki poydevori va tarixiy ko'rinishi hisoblanadi. Chunki o'sha davrlardayoq olimlar til qoidalarini shunchaki yodlashni emas, balki ularni hayotiy ehtiyojga muvofiq ravishda o'rinli qo'llashni talab etganlar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, "kompetensiya" (lotincha *competo* - erishyapman, munosibman, loyiqman) tushunchasi pedagogika fanida o'tgan asrning ikkinchi yarmida, xususan, 1960-yillarning oxiri va 1970-yillarning boshlaridan boshlab keng qo'llanila boshlagan. Ushbu tushuncha pedagogik va lingvistik tadqiqotlarga N. Xomskiy hamda D. Xayms kabi olimlarning ishlari orqali kirib kelgan. Agar umumiy kompetensiya shaxsning ma'lum bir sohadagi bilim, ko'nikma va malakalarining amaliy uyg'unligini ifodalasa, nutqiy kompetensiya til qoidalarini shunchaki bilish emas, balki muayyan nutqiy vaziyatda muloqot maqsadiga muvofiq ravishda tildan to'g'ri, o'rinli va samarali foydalana olish qobiliyatidir.

Binobarin, "nutqiy kompetensiya" tushunchasining mohiyatini anglash uchun, avvalo, N. Xomskiy tomonidan fanga kiritilgan "til kompetensiyasi" va "nutq" tushunchalari o'rtasidagi terminologik farqlanishga e'tibor qaratish lozim. N. Xomskiy kompetensiyani til tizimini (grammatika, fonetika va leksikani) ideal darajada bilish hamda ichki anglash qobiliyati sifatida talqin etgan bo'lsa, AQSh sotsiolingvisti D. Xayms ushbu yondashuvni ma'lum darajada cheklangan deb hisoblagan. D. Xayms inson tildan faqat mavhum qoidalar majmui sifatida emas, balki real ijtimoiy-madaniy muhitda, muayyan muloqot kontekstida foydalanishini ilmiy jihatdan asoslab berdi va fanga "kommunikativ kompetensiya" terminini kiritdi.

Zamonaviy boshlang'ich ta'lim metodikasida nutqiy kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning fundamental asosi va o'zak qismi sifatida e'tirof etiladi. Nutqiy kompetensiya - bu shaxsning lingvistik bilimlari (til kompetensiyasi) hamda ijtimoiy-psixologik ko'nikmalarining nutqiy faoliyat turlari (tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish) jarayonida namoyon bo'ladigan integrativ amaliy sintezidir. Ya'ni, o'quvchi darslikdagi qoidani yoddan aytib berishi (masalan, ot yoki fe'l ta'rifini bilishi) hali unda nutqiy kompetensiya shakllanganini anglatmaydi. Qachonki u ushbu so'z turkumlaridan o'z fikrini og'zaki yoki yozma ravishda bayon etishda xatosiz, mantiqiy va suhbatdoshining yoshiga hamda mavqeiga mos tarzda foydalana olsa, nutqiy kompetensiyaning shakllanganlik darajasi namoyon bo'ladi.

Ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish quyidagi strukturaviy komponentlarning o'zaro aloqadorligini ta'minlashni taqozo etadi:

- 1. Lingvistik (til) komponent** - o'quvchining yoshiga mos lug'at boyligi, so'z shakllari va gap konstruksiyalarini grammatik jihatdan to'g'ri tuza olish ko'nikmasi.
- 2. Sotsiolingvistik (vaziyatli) komponent** - nutqiy vaziyatni (kim bilan, qayerda va qanday maqsadda gaplashilayotganini) anglash hamda shunga mos ravishda lisoniy vositalarni tanlay olish qobiliyati. Masalan, do'sti bilan oddiy uslubda, o'qituvchisi bilan esa rasmiy va odobiy ohangda muloqot qilish.
- 3. Pragmatik (funktional) komponent** - nutq yordamida o'z maqsadiga erisha olish (iltimos qilish, fikrini isbotlash, rad etish, ma'lumot so'rash) hamda muloqotni mantiqan davom ettira olish qobiliyati.

Psixolingvistik nuqtayi nazardan, boshlang'ich sinf yoshi (7-10 yosh) bolada nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning eng sezgir (sensitiv) davri hisoblanadi. Zero, ushbu davrda nutq faqat muloqot vositasi bo'lib qolmay, balki bolaning ichki va tashqi dunyosini tartibga soluvchi hamda intellektual faoliyatini boshqaruvchi tizimga aylanadi. O'quvchi bu bosqichda maktabgacha yosh davriga xos bo'lgan "vaziyatli (situativ) nutq"dan tizimli, mantiqiy va kontekstual nutq shakliga o'ta boshlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, boshlang'ich sinf ona tili darslarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish - bu o'quvchiga tilni passiv o'rgatish emas, balki uni faol nutqiy faoliyat subyektiga aylantirish demakdir. Bu esa ta'lim jarayonida an'anaviy yodlash metodlaridan voz kechib, o'quvchini real nutqiy vaziyatlarga olib kiruvchi interaktiv va kompetensiyaviy yondashuvlarni amaliyotga joriy etishni ilmiy jihatdan asoslaydi.



Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish shunchaki grammatik qoidalar va lisoniy qoliplarni o'zlashtirishdan iborat bo'lgan chiziqli jarayon emas. U o'zida tarixiy-pedagogik tajriba, lingvistik qonuniyatlar hamda bola shaxsining aqliy va ijtimoiy taraqqiyotini mujassam etgan murakkab integrativ tizimdir.

Nutqiy kompetensiyani shakllantirish muammosi qadimgi va o'rta asrlar falsafiy-pedagogik qarashlaridan boshlab bugungi zamonaviy ta'lim paradigmasigacha o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchini tayyor axborotni passiv qabul qiluvchi subyektdan real muloqot vaziyatlarida tildan to'g'ri, o'rinli va samarali foydalana oladigan faol lisoniy shaxsga aylantirish zamonaviy ta'lim oldida turgan eng muhim ilmiy-metodik vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent, 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. - 464 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: "O'zbekiston", 2019. - 592 b.
4. Babanskiy Yu.K. Pedagogika: Izbrannie pedagogicheskie trudi. - Moskva: Pedagogika, 1989. - 560 s
5. Vigotskiy L.S. Mishlenie i rech. - Moskva: Labirint, 2005. 352 s.
6. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. - Toshkent: O'qituvchi, 1995. - 128 b.
7. Mavlonova R., Rahmonqulova N. Boshlang'ich ta'limda integratsiya. - Toshkent: TDPU, 2008. - 140 b.
8. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. - Toshkent: Nosir, 2009. - 352 b.
9. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. Ona tili o'qitish metodikasi. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. - 280 b.
10. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. - Cambridge: MIT Press, 1965. - 252 p.
11. Hymes D. On Communicative Competence. - Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972. - 269 p.
12. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 2004. - 104 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.